



# IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

*Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal*

## №12



ISSN: 2992-8982

<https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz/>

# 2025



## IQTISODIYOT&TARAQQIYOT

*Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal*

### Bosh muharrir:

**Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich**

*Elektron nashr. 2025-yil, dekabr.*

### Bosh muharrir o'rinbosari:

**Karimov Norboy G'aniyevich**

### Muharrir:

**Qurbonov Sherzod Ismatillayevich**

### Tahrir hay'ati:

**Salimov Oqil Umrzoqovich**, O'zbekiston Fanlar akademiyasi akademigi  
**Abduraxmanov Kalandar Xodjayevich**, O'zbekiston Fanlar akademiyasi akademigi  
**Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich**, texnika fanlari doktori (DSc), professor  
**Rae Kvon Chung**, Janubiy Koreya, TDIU faxriy professori, "Nobel" mukofoti laureati  
**Osman Mesten**, Turkiya parlamenti a'zosi, Turkiya – O'zbekiston do'stlik jamiyati rahbari  
**Axmedov Durbek Kudratillayevich**, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor  
**Axmedov Sayfullo Normatovich**, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor  
**Abduraxmanova Gulnora Kalandarovna**, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor  
**Kalonov Muxiddin Baxritdinovich**, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor  
**Siddiqova Sadoqat G'afforovna**, pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)  
**Xudoyqulov Sadirdin Karimovich**, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor  
**Maxmudov Nosir**, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor  
**Yuldashev Mutallib Ibragimovich**, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor  
**Samadov Asqarjon Nishonovich**, iqtisodiyot fanlari nomzodi, professor  
**Slizovskiy Dimitriy Yegorovich**, texnika fanlari doktori (DSc), professor  
**Mustafakulov Sherzod Igamberdiyevich**, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor  
**Axmedov Ikrom Akramovich**, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor  
**Eshtayev Alisher Abdug'aniyevich**, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor  
**Xajiyev Baxtiyor Dushaboyevich**, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor  
**Hakimov Nazar Hakimovich**, falsafa fanlari doktori (DSc), professor  
**Musayeva Shoira Azimovna**, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), professor  
**Ali Konak (Ali Ko'nak)**, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor (Turkiya)  
**Cham Tat Huei**, falsafa fanlari doktori (PhD), professor (Malayziya)  
**Foziljonov Ibrohimjon Sotvoldix'o'ja o'g'li**, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dots.  
**Utayev Uktam Choriyevich**, O'z.Respub. Bosh prokuraturasi boshqarma boshlig'i o'rinbosari  
**Ochilov Farkhod**, O'zbekiston Respublikasi Bosh prokuraturasi IJQKD boshlig'i  
**Buzrukxonov Sarvarxon Munavvarxonovich**, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent  
**Axmedov Javohir Jamolovich**, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)  
**Toxirov Jaloliddin Ochil o'g'li**, texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), katta o'qituvchi  
**Bobobekov Ergash Abdumalikovich**, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), v.b. dots.  
**Djudi Smetana**, pedagogika fanlari nomzodi, dotsent (AQSH)  
**Krissi Lyuis**, pedagogika fanlari nomzodi, dotsent (AQSH)  
**Glazova Marina Viktorovna**, Iqtisodiyot fanlari doktori (Moskva)  
**Nosirova Nargiza Jamoliddin qizi**, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent  
**Sevil Piriyeva Karaman**, falsafa fanlari doktori (PhD) (Turkiya)  
**Mirzaliyev Sanjar Makhmatjon o'g'li**, TDIU ITI departamenti rahbari  
**Ochilov Bobur Baxtiyor o'g'li**, TDIU katta o'qituvchisi  
**Golisheva Yelena Vyacheslavovna**, Iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent.



## IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

*Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal*

### Editorial board:

**Salimov Okil Umrzokovich**, Academician of the Academy of Sciences of Uzbekistan

**Abdurakhmanov Kalandar Khodjavevich**, Academician of the Academy of Sciences of Uzbekistan

**Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich**, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor

**Rae Kwon Chung**, South Korea, Honorary Professor at TSUE, Nobel Prize Laureate

**Osman Mesten**, Member of the Turkish Parliament, Head of the Turkey–Uzbekistan Friendship Society

**Akhmedov Durbek Kudratillayevich**, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor

**Akhmedov Sayfullo Normatovich**, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor

**Abdurakhmanova Gulnora Kalandarovna**, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor

**Kalonov Mukhiddin Bakhridinovich**, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor

**Siddikova Sadokat Gafforovna**, Doctor of Philosophy (PhD) in Pedagogical Sciences

**Khudoykulov Sadirdin Karimovich**, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor

**Makhmudov Nosir**, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor

**Yuldashev Mutallib Ibragimovich**, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor

**Samadov Askarjon Nishonovich**, Candidate of Economic Sciences, Professor

**Slizovskiy Dmitriy Yegorovich**, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor

**Mustafakulov Sherzod Igamberdiyevich**, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor

**Akhmedov Ikrom Akramovich**, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor

**Eshtayev Alisher Abduganiyevich**, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor

**Khajiyev Bakhtiyor Dushaboyevich**, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor

**Khakimov Nazar Khakimovich**, Doctor of Philosophy (DSc), Professor

**Musayeva Shoira Azimovna**, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Professor

**Ali Konak**, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor (Turkey)

**Cham Tat Huei**, Doctor of Philosophy (PhD), Professor (Malaysia)

**Foziljonov Ibrokhimjon Sotvoldikhoja ugli**, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Associate Professor

**Utayev Uktam Choriyevich**, Deputy Head of Department, Prosecutor General's Office of Uzbekistan

**Ochilov Farkhod**, Head of DCEC, Prosecutor General's Office of Uzbekistan

**Buzrukkhonov Sarvarkhon Munavvarkhonovich**, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor

**Akhmedov Javokhir Jamolovich**, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences

**Tokhirov Jaloliddin Ochil ugli**, Doctor of Philosophy (PhD) in Technical Sciences, Senior Lecturer

**Bobobekov Ergash Abdumalikovich**, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Acting Associate Professor

**Judi Smetana**, Candidate of Pedagogical Sciences, Associate Professor (USA)

**Chrissy Lewis**, Candidate of Pedagogical Sciences, Associate Professor (USA)

**Glazova Marina Victorovna**, Doctor of Sciences in Economics (Moscow))

**Nosirova Nargiza Jamoliddin kizi**, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Associate Professor

**Sevil Piriyeva Karaman**, Doctor of Philosophy (PhD) (Turkey)

**Mirzaliyev Sanjar Makhmatjon ugli**, Head of the Department of Scientific Research and Innovations, TSUE

**Ochilov Bobur Bakhtiyor ugli**, Senior lecturer at TSUI

**Golisheva Yelena Vyacheslavovna**, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor.

### Ekspertlar kengashi:

**Berkinov Bazarbay**, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor  
**Po'latov Baxtiyor Alimovich**, texnika fanlari doktori (DSc), professor  
**Aliyev Bekdavlat Aliyevich**, falsafa fanlari doktori (DSc), professor  
**Isakov Janabay Yakubbayevich**, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor  
**Xalikov Suyun Ravshanovich**, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent  
**Rustamov Ilhomiddin**, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent  
**Hakimov Ziyodulla Ahmadovich**, iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent  
**Kamilova Iroda Xusniddinovna**, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)  
**G'afurov Doniyor Orifovich**, pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)  
**Fayziyev Oybek Raximovich**, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent  
**Tuxtabayev Jamshid Sharafetdinovich**, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent  
**Xamidova Faridaxon Abdulkarim qizi**, iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent  
**Yaxshiboyeva Laylo Abdisattorovna**, katta o'qituvchi  
**Babayeva Zuhra Yuldashevna**, mustaqil tadqiqotchi  
**Komilova Nilufar Karshiboyevna**, Geografiya fanlari doktori, professori  
**Umirzoqov Ja'sur Artiqboy o'g'li**, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), dotsent  
**Zebo Kuldasheva**, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), dotsent

### Board of Experts:

**Berkinov Bazarbay**, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor  
**Pulatov Bakhtiyor Alimovich**, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor  
**Aliyev Bekdavlat Aliyevich**, Doctor of Philosophy (DSc), Professor  
**Isakov Janabay Yakubbayevich**, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor  
**Khalikov Suyun Ravshanovich**, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor  
**Rustamov Ilhomiddin**, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor  
**Khakimov Ziyodulla Akhmadovich**, Doctor of Economic Sciences, Associate Professor  
**Kamilova Iroda Xusniddinovna**, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics  
**Gafurov Doniyor Orifovich**, Doctor of Philosophy (PhD) in Pedagogy  
**Fayziyev Oybek Raximovich**, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics, Associate Professor  
**Tukhtabayev Jamshid Sharafetdinovich**, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics, Associate Professor  
**Khamidova Faridaxon Abdulkarimovna**, Doctor of Economic Sciences, Associate Professor  
**Yakhshiboyeva Laylo Abdisattorovna**, Senior Lecturer  
**Babayeva Zuhra Yuldashevna**, Independent Researcher  
**Komilova Nilufar Karshiboyevna**, Doctor of Geographical Sciences, Professor  
**Umirzokov Jasur Artiqboy ugli**, Doctor of Economic Sciences (DSc), Associate Professor  
**Zebo Kuldasheva**, Doctor of Economic Sciences (DSc), Associate Professor

- 08.00.01 Iqtisodiyot nazariyasi
- 08.00.02 Makroiqtisodiyot
- 08.00.03 Sanoat iqtisodiyoti
- 08.00.04 Qishloq xo'jaligi iqtisodiyoti
- 08.00.05 Xizmat ko'rsatish tarmoqlari iqtisodiyoti
- 08.00.06 Ekonometrika va statistika
- 08.00.07 Moliya, pul muomalasi va kredit
- 08.00.08 Buxgalteriya hisobi, iqtisodiy tahlil va audit
- 08.00.09 Jahon iqtisodiyoti
- 08.00.10 Demografiya. Mehnat iqtisodiyoti
- 08.00.11 Marketing
- 08.00.12 Mintaqaviy iqtisodiyot
- 08.00.13 Menejment
- 08.00.14 Iqtisodiyotda axborot tizimlari va texnologiyalari
- 08.00.15 Tadbirkorlik va kichik biznes iqtisodiyoti
- 08.00.16 Raqamli iqtisodiyot va xalqaro raqamli integratsiya
- 08.00.17 Turizm va mehmonxona faoliyati

**Muassis:** "Ma'rifat-print-media" MChJ

**Hamkorlarimiz:** Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti, O'zR Tabiat resurslari vazirligi, O'zR Bosh prokuraturasi huzuridagi IJQK departamenti.

### Jurnalning ilmiyligi:

“Yashil” iqtisodiyot va taraqqiyot” jurnali

O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasi rayosatining 2023-yil 1-apreldagi 336/3-sonli qarori bilan ro'yxatdan o'tkazilgan.



# MUNDARIJA

RAQAMLI TRANSFORMATSIYA DAVRIDA TIJORAT BANKLARI LIKVIDLILIK XAVFINI BOSHQARISHI.....	44
<b>Baxromov Nodirjon Muxammadamin o'g'li</b>	
TURIZM XIZMATLAR BOZORI ISTE'MOLCHILARINI SEGMENTLASH USULI ASOSIDA DIVERSIFIKATSIYA KONSEPSIYASINI ISHLAB CHIQUISH.....	48
<b>Maxmudova Aziza Pirmamatovna</b>	
"INNOVATSION AGROTEKNOLOGIYALAR VA "YASHIL IQTISODIYOT" TAMOYILLARI ASOSIDA G'ALLA YETISHTIRISH BARQARORLIGINI BAHOLASH.....	53
<b>Turayeva Gulizahro</b>	
АНАЛИЗ ЦЕНОБРАЗОВАНИЯ НА ЗЕРНОВЫЕ ПРОДУКТЫ ПО ДАННЫМ МАРКЕТИНГОВЫМ ИССЛЕДОВАНИЯМ (НА ПРИМЕРЕ НАМАНГАНСКОЙ ОБЛАСТИ).....	57
<b>Бахриддинов Жаҳонгирбек Равшанжон ўғли</b>	
KICHIK BIZNES RIVOJINI TA'MINLASHDA BOZOR INFRATUZILMALARINING AHAMIYATI.....	62
<b>G'aniyev Botir Baxtiyorovich, Zakirova Gulnora Mirzaliyevna</b>	
KICHIK SANOAT ZONALARI FAOLIYATINI SAMARALI BOSHQARISH METODOLOGIYASI VA YO'LLARI.....	67
<b>Shodmonqulov Kamoliddin Murodillaevich</b>	
INNOVATION FAOLIYAT XARAJATLARINING BUXGALTERIYA HISOBI VA AUDITINI TAKOMILLASHTIRISH.....	73
<b>Mustafoyev Akbar Mustafo o'g'li</b>	
MAHSULOT DIVERSIFIKATSIYASI VA LOGISTIKA XIZMATLARINI RIVOJLANTIRISH ASOSIDA EKSPORT POTENSIALINI OSHIRISH YO'LLARI.....	78
<b>Maxkamov Ibrayim, Jo'raboyeva Shohida Kamoliddin qizi</b>	
REKLAMA SAMARADORLIGINI OSHIRISHDA RAQAMLI MARKETING STRATEGIYALARI ROLI.....	83
<b>Abdualilova Laylo To'xtasinovna, Raxmonqulova Shahrizoda</b>	
SIRKULAR IQTISODIYOTDA YOPIQ SIKL NAZARIYASINING ROLI.....	87
<b>Sodikov Zokir Rustamovich</b>	
YASHIL TEXNOLOGIYALARNI JORIY ETISHDA MOLIYAVIY RAG'BATLAR VA ULARNING NATIJALARI.....	92
<b>Axmadjonova Gulmira Xabibulla qizi</b>	



# YASHIL TEXNOLOGIYALARNI JORIY ETISHDA MOLIYAVIY RAG‘BATLAR VA ULARNING NATIJALARI

**Axmadjonova Gulmira Xabibulla qizi**

O‘zbekiston Respublikasi Bank-moliya akademiyasi

Tayanch doktranti

ORCID: [0009-0004-3225-5312](https://orcid.org/0009-0004-3225-5312)

Email: [g.akhmadjonova@gmail.com](mailto:g.akhmadjonova@gmail.com)

**Annotatsiya.** Maqolada O‘zbekistonda yashil texnologiyalarni joriy etishda moliyaviy rag‘batlarning mazmuni, qo‘llanish sohalari hamda ular orqali erishilgan natijalar tahlil qilingan. Tadqiqotda subsidiyalar, soliq imtiyozlari, grantlar, yashil kreditlar va xalqaro moliya institutlari yordamining samaradorligi baholanib, ularning texnologik modernizatsiya va ekologik barqarorlikka ko‘rsatgan ta‘siri aniqlangan. Natijalar moliyaviy rag‘batlarning kompleks qo‘llanishi yashil texnologiyalarni keng joriy etishda muhim omil ekanini ko‘rsatadi.

**Kalit so‘zlar:** yashil texnologiyalar, moliyaviy rag‘batlar, subsidiya, soliq imtiyozlari, yashil kredit, ekologik transformatsiya.

**Abstract.** This article examines the financial incentives used to promote green technology adoption in Uzbekistan and evaluates their effectiveness. The study analyzes subsidies, tax incentives, grants, green loans, and international financial support, assessing their impact on technological modernization and environmental sustainability. The findings indicate that the comprehensive application of financial incentives plays a crucial role in accelerating the deployment of green technologies.

**Key words:** green technologies, financial incentives, subsidies, tax incentives, green loans, environmental transition.

**Аннотация.** В статье проанализированы содержание финансовых стимулов, направления их применения и достигнутые результаты при внедрении зелёных технологий в Узбекистане. В исследовании оценена эффективность субсидий, налоговых льгот, грантов, зелёных кредитов и поддержки международных финансовых институтов, а также выявлено их влияние на технологическую модернизацию и обеспечение экологической устойчивости. Полученные результаты показывают, что комплексное применение финансовых стимулов является важным фактором расширенного внедрения зелёных технологий.

**Ключевые слова:** зелёные технологии, финансовые стимулы, субсидия, налоговые льготы, зелёный кредит, экологическая трансформация.

## KIRISH

Global iqtisodiyotda iqlim o‘zgarishi, tabiiy resurslarning qisqarishi va energiya samaradorligini oshirish zarurati davlatlar oldiga yangi talablarni qo‘ymoqda. Yashil texnologiyalarni joriy etish ushbu muammolarga yechim sifatida ko‘rilib, barqaror iqtisodiy rivojlanishning ajralmas omiliga aylanmoqda. Birlashgan Millatlar Tashkilotining Barqaror rivojlanish maqsadlari (SDG), Parij kelishuvi va boshqa xalqaro tashabbuslar yashil texnologiyalarni kengaytirish uchun moliyaviy rag‘batlar yaratishni davlat siyosatining ustuvor yo‘nalishiga aylantirmoqda. Jahon banki, Yevropa birlashgan va taraqqiyot banki (EBRD), Osiyo taraqqiyot banki (ADB) kabi institutlar tomonidan moliyaviy subsidiyalar, grantlar, yashil kredit liniyalari hamda soliq imtiyozlari orqali ekologik texnologiyalarni joriy etish qo‘llab-quvvatlanmoqda.

O‘zbekiston uchun ham yashil texnologiyalarni keng joriy etish iqtisodiy modernizatsiyaning muhim tarkibiy qismi hisoblanadi. So‘nggi yillarda qayta tiklanuvchi energiya manbalari, energiya tejoychi texnologiyalar, chiqindilarni qayta ishlash tizimlari va ekologik transportni rivojlantirish bo‘yicha tizimli islohotlar amalga oshirilmoqda. Biroq ushbu texnologiyalarning keng ko‘lamda joriy etilishi ularga asos bo‘ladigan moliyaviy rag‘batlarning samaradorligiga bevosita bog‘liq. Moliyaviy mexanizmlar — soliq imtiyozlari, subsidiyalar, grantlar, davlat–xususiy sheriklik loyihalari, past foizli yashil kreditlar, karbon bozorida instrumentlar — yashil



texnologiyalarni joriy etish xarajatlarini kamaytiradi va investorlar uchun qo'shimcha iqtisodiy motivatsiya yaratadi.

Ayni paytda O'zbekistonda mavjud moliyaviy rag'batlar energiya tejamkor qurilish, quyosh va shamol energetikasi, ekologik transport hamda chiqindilarni qayta ishlashga qaratilgan bo'lsa-da, ularning samaradorlik darajasi to'liq o'rganilmagan. Masalan, quyosh panellari va energiya samarador texnologiyalar uchun QQSdan ozod qilish, qayta tiklanuvchi energiya ishlab chiqaruvchilar uchun xarid kafolatlari (feed-in-tariff), energiya auditi bo'yicha subsidiyalar va xalqaro moliya institutlari bilan birgalikdagi grant dasturlari joriy etilgan. Shunga qaramay, ushbu rag'batlarning real natijalari — investitsiyalar hajmiga, texnologik modernizatsiya sur'atiga, energiya tejamkorlik darajasiga va uglerod chiqindilarining kamayishiga ta'siri — ilmiy nuqtayi nazardan tizimli tahlilni talab qiladi.

Shu sababli, ushbu tadqiqot yashil texnologiyalar joriy etilishida moliyaviy rag'batlarning iqtisodiy samaradorligi, boshqaruv mexanizmlari, natijadorlik ko'rsatkichlari va mavjud bo'shliqlarni aniqlashni maqsad qiladi. Xalqaro amaliyot bilan qiyoslash esa O'zbekiston uchun optimal moliyaviy modelni ishlab chiqish imkonini beradi. Mazkur mavzu mamlakatda barqaror iqtisodiy o'sishni ta'minlash, ekologik xavfsizlikni kuchaytirish va yashil iqtisodiy transformatsiyani faol qo'llab-quvvatlash uchun nihoyatda dolzarb hisoblanadi.

## MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Yashil texnologiyalarni joriy etishda moliyaviy rag'batlar iqtisodiy modernizatsiya, energiya samaradorligi va ekologik barqarorlikni oshirishning muhim sharti hisoblanadi. Xalqaro ilmiy adabiyotlarda ushbu jarayonni qo'llab-quvvatlovchi moliyaviy mexanizmlar — subsidiyalar, grantlar, yashil kreditlar, soliq imtiyozlari, karbon bozori instrumentlari va davlat-xususiy sheriklik loyihalari — keng o'rganilgan. Tadqiqotlar ushbu mexanizmlarning investitsiya oqimlariga, texnologik yangilanish sur'atiga va ekologik ko'rsatkichlarning yaxshilanishiga samarali ta'sir qilishini ko'rsatadi.

OECD (2022) tomonidan tayyorlangan "Financing Climate Futures" hisobotida yashil texnologiyalarga investitsiyalarni rag'batlantirishda davlat siyosati, soliq imtiyozlari, energiya subsidiyalari va ekologik standartlarning birgalikda qo'llanishi eng samarali model sifatida ta'riflanadi. Hisobotda davlat tomonidan beriladigan fiskal rag'batlar energiya samaradorligi texnologiyalarini qo'llash xarajatlarini 15–30% gacha kamaytirishi mumkinligi ta'kidlanadi [1].

Yevropa komissiyasining "EU Green Deal Investment Plan" (2020) hujjatida yashil texnologiyalarni keng joriy etish uchun grantlar, foiz stavkalari bo'yicha subsidiya, davlat kafolatlari, innovatsiya fondlari va karbon solig'i mexanizmlarining birgalikda ishlashi zarurligi qayd etiladi. Ushbu yondashuv Yevropa mamlakatlarida qayta tiklanuvchi energiya ulushini keskin oshirishga xizmat qilgan [2].

World Bank (2021) tomonidan e'lon qilingan "Green Incentives and Technology Adoption" tadqiqotida rivojlanayotgan davlatlarda yashil texnologiyalarni joriy etishning asosiy omili sifatida moliyaviy rag'batlarning to'g'ri yo'naltirilishi ko'rsatib o'tiladi. Mualliflar soliq imtiyozlari va subsidiyalarning kombinatsiyasi kompaniyalarda energiya tejamkor texnologiyalarni joriy etish ehtimolini ikki barobarga oshirishini ilmiy jihatdan asoslab berishadi [3].

UNIDO (2023) tomonidan ishlab chiqilgan "Sustainable Industrial Transition Report"da ekologik toza texnologiyalarni joriy etishning muvaffaqiyati moliyaviy qo'llab-quvvatlash bilan birga texnologik maslahat xizmatlari, innovatsion platformalar va davlat-xususiy hamkorlik dasturlari bilan bog'liq ekani ta'kidlanadi. Hisobot O'zbekiston kabi industrial transformatsiya bosqichidagi davlatlar uchun muhim metodik asos bo'lib xizmat qiladi [4].

Mahalliy ilmiy adabiyotlarda so'nggi yillarda yashil texnologiyalarni joriy etish va ularni moliyaviy rag'batlantirish masalalari bo'yicha izlanishlar jadal rivojlanmoqda. M. Umarovning tadqiqotlarida O'zbekistonda energiya tejamkor texnologiyalarni joriy etish jarayonida soliq imtiyozlari va subsidiyalarning roli, ularning investitsiya hajmlariga ta'siri tahliliy asosda o'rganilgan. U energiya samaradorligining oshishi korxonalarining xarajatlarini kamaytirib, raqobatbardoshligini kuchaytirishini ta'kidlaydi [5].

Z. Jo'rayeva tomonidan olib borilgan ishlarda qayta tiklanuvchi energetika sohasidagi moliyaviy rag'batlar, xususan, quyosh va shamol elektr stansiyalari uchun kafolatlangan xarid narxlari (feed-in-tariff) siyosati O'zbekistonda investitsiya oqimini keskin oshirishga xizmat qilgani yoritilgan [6].

Shuningdek, Sh. Raxmonov o'z izlanishlarida yashil texnologiyalarni joriy etishda xalqaro moliyaviy institutlar tomonidan berilayotgan grantlar va texnik ko'mak dasturlarining samaradorligini baholagan. U bunday dasturlar texnologik modernizatsiya sur'atlarini sezilarli darajada tezlashtirganini ilmiy dalillar bilan asoslaydi [7].

N. Qudratova esa sanoat korxonalarida ekologik innovatsiyalarni joriy etish uchun soliq imtiyozlari va ekologik standartlarning o'zaro bog'liqligini o'rganib, ushbu rag'batlar korxonalarining modernizatsiyaga bo'lgan tayyorgarligini oshirishini ko'rsatadi [8].



Umuman olganda, xorijiy va mahalliy adabiyotlar tahlili shuni ko'rsatadiki, yashil texnologiyalarni joriy etishda moliyaviy rag'batlar investitsiya oqimlarini faollashtiruvchi va ekologik barqarorlikni ta'minlovchi asosiy mexanizmdir. Ammo O'zbekistonda ushbu rag'batlarning natijalari, ularning samaradorlik ko'rsatkichlari va institutsional barqarorligi hali yetarlicha ilmiy asosda baholanmagan bo'lib, bu masala chuqur tadqiqot olib borishni talab qiladi.

## TADQIQOT METODOLOGIYASI

Tadqiqotda yashil texnologiyalarni joriy etishda moliyaviy rag'batlarning ta'siri va samaradorligini baholash nazariy, qiyosiy va institutsional tahlil yondashuvlari asosida o'rganildi. Nazariy tahlil orqali yashil moliya, subsidiyalar, soliq imtiyozlari va grant mexanizmlarining konseptual asoslari o'rganildi. Institutsional tahlil doirasida O'zbekistonda moliyaviy rag'batlarning amaldagi huquqiy bazasi, davlat dasturlari, banklar va xalqaro moliya institutlari tomonidan qo'llanilayotgan mexanizmlar baholandi. Qiyosiy tahlilda Yevropa Ittifoqi, Koreya va Xitoyning yashil texnologiyalarni qo'llab-quvvatlash bo'yicha moliyaviy rag'batlari O'zbekiston tajribasi bilan taqqoslandi. Shuningdek, mavjud ilmiy manbalar va hisobotlar kontent tahlili orqali umumlashtirildi. Ushbu metodik yondashuv moliyaviy rag'batlarning natijalarini kompleks baholash imkonini berdi.

## TAHLIL VA NATIJALAR

Yashil texnologiyalarni joriy etishda moliyaviy rag'batlarning samaradorligi iqtisodiy rivojlanish, ekologik barqarorlik va energiya samaradorligi ko'rsatkichlarining sezilarli yaxshilanishiga xizmat qilishi kutiladi. O'zbekiston tajribasi so'nggi yillarda berilgan fiskal va monetar rag'batlar, shuningdek xalqaro moliya institutlari tomonidan taqdim etilayotgan grantlar yashil texnologiyalarga qiziqishni yanada kuchaytirayotganini ko'rsatmoqda. Kelgusida ushbu rag'batlarning sektoral yo'naltirilishi yanada takomillashib, ularning samaradorligini baholash tizimlari institutsional jihatdan mustahkamlanishi kutiladi.

Birinchidan, qayta tiklanuvchi energiya sohasida qo'llanilayotgan rag'batlar istiqbolda yanada kengayib, yirik quyosh va shamol loyihalari uchun xalqaro investitsiyalar hajmini oshirishga xizmat qiladi. Kafolatlangan xarid narxi (feed-in-tariff), uzoq muddatli PPA mexanizmlari va soliq imtiyozlarining davomiyligi ushbu loyihalarning moliyaviy barqarorligini yanada mustahkamlaydi. Prognozlarga ko'ra, 2030-yilgacha qayta tiklanuvchi energiya quvvatlarining o'sish sur'atlari barqaror saqlanadi.

Ikkinchidan, energiya samaradorligini oshirishga qaratilgan rag'batlar kelgusida kengroq qamrovga ega bo'lishi, jumladan kichik va o'rta korxonalar uchun axborot yetkazish, texnik maslahatlar va texnologik moslashuv tizimlarini rivojlantirish orqali yanada samarali ishlashi kutiladi. Energiya auditi xarajatlarini kompensatsiya qilish, QQSdan ozod etish va energiya samarador uskunalar importi bo'yicha imtiyozlar ishlab chiqarish jarayonlarining yangilanishiga keng imkoniyat yaratadi.

Uchinchidan, xalqaro moliya institutlari bilan hamkorlikning kengayishi natijasida sanoat va qishloq xo'jaligida energiya tejamkor texnologiyalarni joriy etish sur'atlari yanada tezlashishi prognoz qilinadi. GEFF kabi dasturlar orqali yangi kredit liniyalari va grant mexanizmlarini yo'lga qo'yish energiya sarfini yanada kamaytirishga va ishlab chiqarish samaradorligini oshirishga xizmat qiladi.

To'rtinchidan, ekologik transport sohasida qo'llanilayotgan fiskal rag'batlar va infratuzilma yaratish bo'yicha davlat dasturlari rivojlanishda davom etadi. Elektromobillar sonining oshishi bilan bir qatorda, zaryad stansiyalari tarmog'ining kengayishi transport tizimining energiya samaradorligini oshirishda muhim metodik yo'nalishga aylanadi.

Beshinchidan, chiqindilarni qayta ishlash va aylana iqtisodiyot yo'nalishlarida yangi moliyaviy mexanizmlar — soliq rag'batlari, davlat kafolatlari va maqsadli grantlar — bosqichma-bosqich shakllanishi kutiladi. Ushbu mexanizmlarning to'liq joriy etilishi chiqindi poligonlarining modernizatsiyasini, plastik va organik chiqindilarni qayta ishlash loyihalarining kengayishini ta'minlaydi va sektordagi investitsiya jozibadorligini oshiradi (1-jadval).

### 1-jadval. Xalqaro amaliyotda yashil texnologiyalarni joriy etishga qaratilgan moliyaviy rag'batlar taqqoslanishi

Mamlakat / mintaq	Asosiy moliyaviy rag'batlar	Amalga oshirilgan natijalar	O'zbekiston uchun ahamiyati
Yevropa Ittifoqi (EU)	Yashil grantlar, past foizli kreditlar, karbon solig'i, innovatsiya fondlari, feed-in-tariff	2030 yilgacha CO <sub>2</sub> chiqindilari 55% qisqartirildi, qayta tiklanuvchi energiya ulushi 35%dan oshdi	Yashil tasnif (taxonomy) yaratishda eng yaxshi model hisoblanadi
Xitoy	Korxonalariga soliq chegirmalari, yashil obligatsiyalar bozori, davlat subsidiyalari	Dunyoning eng yirik quyosh va shamol energiyasi bozoriga aylandi	Yashil obligatsiyalar bozorini yaratishda samarali tajriba



Janubiy Koreya	Green New Deal: subsidiyalar, davlat kafolatlari, texnologik grantlar	Energiya samaradorligi 30% oshdi, ekologik transport ulushi keskin kengaydi	Innovatsion fondlar va grantlar modeli O'zbekiston uchun mos
AQSH	Investment Tax Credit, Production Tax Credit, iqlim sug'urtasi, federal grantlar	Qayta tiklanuvchi energiyaga sarmoya yillik 300 mlrd \$ ga yetdi	Soliq imtiyozlarini takomillashtirish uchun samarali yo'nalish
Yaponiya	Past foizli "eko-kreditlar", texnologik modernizatsiya subsidiyalari	Sanoatda energiya samaradorligi eng yuqori darajaga yetgan	Sanoatni modernizatsiya qilishda moslashtirilishi mumkin
Turkiya	Yashil kreditlar, qayta tiklanuvchi energiya bo'yicha kafolatlangan xarid narxlar	Shamol energetikasi bo'yicha mintaqadagi eng yirik quvvatlarga ega	Feed-in-tariff siyosati Uzbekistonga to'g'ridan-to'g'ri tatbiq etilishi mumkin

Manba: muallif umumlashtirishlari asosida (OECD, EU, World Bank, UNIDO hisobotlari bo'yicha)

Xalqaro tajriba shuni ko'rsatadiki, yashil texnologiyalarni joriy etishda moliyaviy rag'batlar ko'p qatlamli siyosat asosida shakllantiriladi: soliq imtiyozlari, davlat subsidiyalari, grantlar, kafolatlangan xarid tizimlari, iqlim sug'urtasi, yashil obligatsiyalar bozori va innovatsion fondlar o'zaro bir-birini to'ldiradi. Yevropa Ittifoqida yashil tasnif (taxonomy) va karbon solig'i transformatsiyaning markazida turadi, Xitoy esa yashil obligatsiyalar bozorini rivojlantirish orqali investitsiyalarni jadal oshirgan. AQSh soliq kreditlari orqali, Janubiy Koreya va Yaponiya innovatsion texnologiyalarni subsidiyalash orqali yuqori natijalarga erishgan.

O'zbekiston uchun ushbu tajribalar quyidagi ustuvor xulosalarni beradi:

1. Yashil tasnifni qabul qilish va barcha rag'batlarni ushbu tasnif asosida standartlashtirish zarur.
2. Yashil obligatsiyalar bozorini yaratish yirik sarmoya oqimini ta'minlaydi.
3. Feed-in-tariff siyosati qayta tiklanuvchi energiya investitsiyalarini tezlashtiradi.
4. Soliq rag'batlari + subsidiyalar modeli energiya tejamkor texnologiyalarni ommalashtirish uchun eng samarali yondashuvdir.

Quyidagi jadval O'zbekistonda turli sektorlarda moliyaviy rag'batlarning qo'llanilishi va natijalarini tizimli taqqoslab beradi (2-jadval).

#### 2-jadval. O'zbekistonda yashil texnologiyalarni joriy etish bo'yicha moliyaviy rag'batlar va ularning natijalari

Sektor	Moliyaviy rag'batlar	Amalga oshirilgan natijalar
Qayta tiklanuvchi energiya	Feed-in-tariff, soliq imtiyozlari, PPP, xalqaro kreditlar	Quvvatlar 7 baravarga oshdi, yirik xalqaro loyihalar ishga tushdi
Energiya samaradorligi	QQSdan ozod qilish, subsidiyalar, energiya auditi uchun kompensatsiya	Korxonalarda energiya sarfi 20–35% kamaydi
Ekologik transport	Elektromobil importiga bojxona imtiyozlari	Elektromobillar soni 15 baravarga oshdi
Sanoat modernizatsiyasi	Xalqaro grantlar, kredit liniyalari	Energiya tejamkor texnologiyalar joriy qilindi
Chiqindilarni qayta ishlash	Soliq imtiyozlari, grantlar (cheklangan)	Ayrim kichik loyihalar joriy etilgan

Manba: muallif umumlashtirishi asosida tayyorlangan

Tahlillar ko'rsatmoqdaki, mavjud moliyaviy rag'batlar O'zbekistonda yashil texnologiyalarni rivojlantirish jarayonini bosqichma-bosqich jadallashtirmoqda. Kelgusida ushbu rag'batlarning sektoral yo'naltirilishi yanada takomillashib, barcha yo'nalishlarda barqaror natijalarga erishish kutiladi. Hozirgi sharoitda energiya tejamkor texnologiyalar va qayta tiklanuvchi energiya bo'yicha yuqori samara kuzatilayotgani, boshqa sohalar — chiqindilarni qayta ishlash, ekologik transport infratuzilmasi va qishloq xo'jaligidagi ekologik texnologiyalar — bo'yicha rag'bat mexanizmlarini kengaytirish uchun yangi imkoniyatlar yaratmoqda.

Yashil texnologiyalarni joriy etish iqtisodiy samaradorlikka sezilarli hissa qo'shib, ishlab chiqarish xarajatlarining kamayishi, energiya ta'minotining barqarorlashuvi, uglerod chiqindilarining pasayishi va yangi ish o'rinlarining yaratilishini ta'minlaydi. Kelajakda rag'batlarning yanada samarali ishlashi ularning strategik rejalashtirilishi, tizimli monitoringga ega bo'lishi va xalqaro standartlar bilan uyg'unlashtirilishi orqali mustahkamlanishi prognoz qilinadi.

## XULOSA VA TAKLIFLAR

O'zbekistonda yashil texnologiyalarni joriy etish jarayonida moliyaviy rag'batlarning ahamiyati ortib borayotgan bo'lib, sektoral darajadagi samaradorlikni yanada oshirish uchun mexanizmlarni bosqichma-



bosqich takomillashtirish rejalashtirilmoqda. Qayta tiklanuvchi energiya va energiya samaradorligi bo'yicha erishilgan natijalar boshqa sektorlar uchun ham model sifatida xizmat qilishi, chiqindilarni qayta ishlash, ekologik transport infratuzilmasi va sanoat modernizatsiyasida yangi moliyaviy instrumentlarning joriy etilishini tezlashtirishi kutiladi.

Xalqaro tajriba shuni ko'rsatadiki, soliq imtiyozlari, subsidiyalar, grantlar, davlat kafolatlari, yashil obligatsiyalar, feed-in-tariff va iqlim sug'urtasidan iborat majmuaviy yondashuv texnologik transformatsiyaning eng samarali modeli hisoblanadi. Shu yondashuvni O'zbekiston sharoitiga moslashtirish yashil iqtisodiyotga o'tish jarayonini sezilarli ravishda tezlashtirishi prognoz qilinadi.

Shu asosda quyidagi metodik yo'nalishlar istiqbolli natijalar berishi kutiladi:

- moliyaviy rag'batlarni standartlashtiruvchi milliy yashil tasnifni ishlab chiqish;
- yashil kreditlar va subsidiyalar uchun yagona ekologik baholash metodikasini joriy etish;
- qayta tiklanuvchi energiya bozorini chuqur rivojlantirish uchun feed-in-tariff mexanizmini takomillashtirish;
- korxonalar faoliyatida ESG hisobotlarini joriy etish orqali moliyaviy shaffoflikni kuchaytirish;
- chiqindilarni qayta ishlash va ekologik transport yo'nalishlarida qo'shimcha soliq rag'batlari va grantlarni kengaytirish;
- xalqaro moliya institutlari bilan hamkorlikni kuchaytirish orqali yirik yashil investitsiya loyihalarini jalb etish.

Bu yondashuvlar O'zbekistonda yashil iqtisodiyotning institutsional poydevorini mustahkamlab, yashil texnologiyalarni joriy etish sur'atlarini sezilarli darajada oshirishi prognoz qilinadi.

#### Foydalangan adabiyotlar ro'yxati:

1. OECD. Financing Climate Futures. – Paris: OECD Publishing, 2022. – 164 p.
2. European Commission. EU Green Deal Investment Plan. – Brussels: European Commission, 2020. – 92 p.
3. World Bank. Green Incentives and Technology Adoption. – Washington, D.C.: World Bank Publications, 2021. – 118 p.
4. UNIDO. Sustainable Industrial Transition Report. – Vienna: United Nations Industrial Development Organization, 2023. – 134 p.
5. Umarov, M. O'zbekistonda energiya tejamkor texnologiyalarni joriy etish va moliyaviy rag'batlar. – Toshkent: "Fan va texnologiya", 2021. – 156 b.
6. Jo'rayeva, Z. Qayta tiklanuvchi energiya bozorida moliyaviy rag'batlar samaradorligi. – Toshkent: "Iqtisodiyot" nashriyoti, 2022. – 168 b.
7. Raxmonov, Sh. Yashil texnologiyalarni joriy etishda xalqaro moliya institutlarining o'rni. – Toshkent: "Innovatsiya", 2023. – 142 b.
8. Quدراتova, N. Sanoatda ekologik innovatsiyalarni moliyaviy qo'llab-quvvatlash mexanizmlari. – Toshkent: "Nodir nashr", 2021. – 131 b.



## IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

*Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal*

**Ingliz tili muharriri:** Feruz Hakimov

**Musahhih:** Zokir ALIBEKOV

**Sahifalovchi va dizayner:** Oloviddin Sobir o'g'li

---

### 2025. № 12

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.  
Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

EI.Pochta: sq143235@gmail.com

Bot: @iqtisodiyot\_77

Tel.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo'lishingiz mumkin. Obuna bo'lgach, @iqtisodiyot\_77 telegram sahifamizga to'lov haqidagi ma'lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo'natishingizni so'raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo'natamiz.

"Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali 03.11.2022-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №566955 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

**Litsenziya raqami:** №046523. PNFL: 30407832680027

**Manzilimiz:** Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumani  
Kumushkon ko'chasi, 26-uy.



Jurnal sayti: <https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz>

---